

XALQ SAHNA RAQSINING XALQARO SAHNADAGI NUFUZI

Aminova Dilrabo Raximovna,*O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi Urganch filiali 2-kurs talabalari*dilrabo.aminova99@gmail.com

0009-0000-1787-2786

Sattarova Gulnoza Botir qizi,*O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi Urganch filiali 1-kurs talabasi*sattarovagulnoza001@gmail.com

0009-0001-6979-5580

Annotatsiya. Xalq sahna raqsi uzun tarixiy taraqqiyotga ega san'at turi bo'lib, u har bir xalqning milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini va badiiy didini o'zida mujassam etgan. Bu san'at turining rivoji, avvalo, har bir mamlakatda xalq raqslari merosining asrab-avaylanishi va zamonaviy talqinda namoyon etilishiga bog'liq. Xalq raqsining sahnaga ko'chirilishi, uning musiqiy hamda dramaturgik ifodasi, zamonaviy uslubda qayta ishlanishi nafaqat mamlakat ichida balki, xalqaro maydonda ham keng e'tirof topmoqda. Ushbu maqolada Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq raqsi, sahna raqsi, xalqaro nufuz, milliy madaniyat, raqs san'ati, O'zbekiston raqslari, madaniy meros, sahna ijrosi, an'anaviy raqs, ijodiy innovatsiya.

Аннотация. Народный сценический танец — это вид искусства с долгой историей развития, воплощающий национальные традиции, ценности и художественный вкус каждого народа. Развитие этого вида искусства зависит, прежде всего, от сохранения и современной интерпретации наследия народных танцев в каждой стране. Перенос народного танца на сцену, его музыкально-драматическое выражение и его обработка в современном стиле широко признаны не только внутри страны, но и на международной арене. В данной статье представлена информация о влиянии народного сценического танца на международную сцену.

Ключевые слова: народный танец, сценический танец, международное влияние, национальная культура, танцевальное искусство, танцы 1 2 2 сценическое представление, Узбекистана, культурное наследие, традиционный танец, творческое новаторство.

Abstract. Folk stage dance is an art form with a long historical development, which embodies the national traditions, values, and artistic taste of each people. The development of this art form depends, first of all, on the preservation and modern interpretation of the heritage of folk dances in each country. The transfer of folk dance to the stage, its musical and dramatic expression, and its processing in a modern style are widely recognized not only within the country, but also in the international arena. This article provides information about the influence of folk stage dance on the international stage.

Keywords: folk dance, stage dance, international influence, national culture, dance art, dances of Uzbekistan, cultural heritage, stage performance, traditional dance, creative innovation.

Kirish. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi haqida so'z yuritganda, avvalo, raqsning o'ziga xosligi va milliylikiga e'tibor qaratish lozim. Har bir xalqning o'ziga xos harakatlari, musiqa asarlari va liboslari ularning o'ziga hosligini ifodalaydi. Xalq sahna raqslari ko'plab mamlakatlarda turli festivallar, ko'rik-tanlovlar va konsert dasturlarida namoyish etilib kelinmoqda. Bu, o'z navbatida, milliy raqs san'atining jahon miqyosida tan olinishiga xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston, Gruziya, Xitoy, Hindiston, Ispaniya va boshqa ko'plab davlatlarning milliy raqslari xalqaro sahnalarda izlanuvchilar, san'at ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olinadi. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi

muvaffaqiyati bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu san'at turining bevosita xalq hayoti, urf-odatlar va ma'naviyati bilan chambarchas bog'liqligi hamda xalq ruhiyatining aks etganligidadir. Ikkinchidan, milliy raqs san'atining ulug'vorligi, o'ziga xos ifoda vositalari, rang-barang liboslarning mujassamligi xalqaro tomoshabinlarni hayratga soladi. Shu bilan birga, sahna harakatlarining dramatik yondashuvda sahnalashtirilishi san'at asarining badiiy qiymatini oshiradi va tomoshabinda chuqur taassurot qoldiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalq sahna raqsining xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlarida professional raqs ansambllari, xoreograflar va san'at ustalarining xizmatlari beqiyosdir. Ular milliy raqslarning noyob namunalarini asrab-avaylab, ularni sahna san'atiga moslashtirish orqali xalq orasidagi qadimiy urf-odatlarni jahon hamjamiyatiga yetkazish borasida katta ishlar olib bormoqdalar. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar yordamida, televidenie va internet orqali O'zbekistonning "Lazgi", "Bakhor", "Andijon polkasi" kabi raqs turlari va boshqa ko'plab mamlakatlarning milliy raqs namunalarini butun dunyo tomosha qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy san'atlar o'rtasida madaniy muloqotni mustahkamlab, xalqlarning bir-birini yanada chuqurroq o'rganishiga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida xalq sahna raqsi xalqaro madaniy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Har yili dunyoning turli burchaklarida tashkil etiladigan xalqaro folklor festivallari, raqs ansambllari ishtirokidagi ko'rik-tanlovlar, sahnaviy ko'rgazmalar milliy raqs san'atining xorijiy tomoshabinlar tomonidan qadrlanishiga, o'rgatilishiga sabab bo'lmoqda. Bunda nafaqat raqqosalar yoki ansambl a'zolari, balki san'atshunoslar, ilmiy tadqiqotchilar, xoreograflar va bastakorlar ham faol ishtirok etadilar. Ularning izlanishlari natijalarida milliy va zamonaviy raqs uslublarning uyg'unlashuvi, yangi harakat va uslublarning shakllanishi kuzatilmoqda [1]. Xalq sahna raqsining xalqaro miqyosda nufuz topishida davlat miqyosidagi e'tibor ham muhim o'rin tutadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida mahalliy va xalqaro grantlar asosida raqs san'ati an'alarini tadqiq qilish va rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, milliy merosni asrab-avaylash borasida keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlar, ayniqsa, xalqaro hamkorlik doirasida, ya'ni bir mamlakat raqs jamoalarining boshqa davlatlarda birgalikda ishtirok etishi, ularning tajriba almashinuvi, seminar va master klasslarning o'tkazilishi natijasida yangi raqsalar yaratilmoqda va milliy raqsalar repertuari boyimoqda [2].

Muhokama va natijalar. Xalq sahna raqsari davlatlar o'rtasidagi madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Keng miqyosdagi madaniy almashinuv va tashriflar, xalqaro festivallarda ishtirok etish hamda xorijiy tomoshabinlar oldida chiqishlar nafaqat milliy san'atning ommalashuviga, balki mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Masalan, o'zbekistonlik raqs ansambllari dunyoning nufuzli san'at festivallarida doimiy qatnashib kelmoqda va ko'plab faxrli o'rinlarni egallamoqda. Bu orqali nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo

xalqlari san'ati ham xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Bir tomondan, xalq sahna raqslari orqali xalqaro maydonlarda mamlakat brendi, milliy g'urur va o'ziga xoslik targ'ib qilinadi. Boshqa tomondan, jahonning boshqa xalqlari bilan do'stona, madaniy aloqalar vujudga keladi. Boisi, musiqiy, harakat va badiiy ifoda vositalari orqali xalqning yurakdagi tuyg'ulari, o'y-fikrlari, orzu-umidlari, baxt va shodligi butun dunyoga yetkaziladi. Shuning uchun ham, har bir davlat o'z raqs san'atining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga katta ahamiyat bermoqda [3]. Xalq sahna raqsining jahon miqyosida keng tarqalganini ko'rsatadigan misollardan biri– UNESCOning YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan raqs turlaridir. Masalan, o'zbek xalqining "Lazgi", gruziya xalqining "Kartuli", ispan xalqining "Flamenko", hindistonning "Bharatanatyam", xitoyning "Yangi yil raqsi" va boshqa ko'plab raqs turlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu yuksak e'tirof bir tomondan, raqsning xalqaro miqyosda nufuzi va qadrlanishidan, ikkinchi tomondan esa bunday raqslarni ijro etuvchi san'atkorlar va tadqiqotchilarning teran ilmiy faoliyatidan dalolat beradi. Milliy raqs san'atining xalqaro maydonda tan olinishiga sabab bo'ladigan yana bir muhim omil– bu raqqosa va raqqoslarning sahna madaniyatiga, ijro uslublariga, estetik did va bilimlariga ega bo'lishidir. Ular har bir chiqishida milliy badiiy an'analarni saqlagan holda, zamonaviy talqinlar va yangi g'oyalarni o'z ijrolarida namoyon etadilar. Raqs asarlariga ishlov berish, yangi harakatlarga boyitish, zamonaviy sahna effektlarini qo'llash haqida buyuk ustozlarning, yirik badiiy rahbarlarning hissasi salmoqli. Ayniqsa, har bir chiqishda tomoshabinlarni hayratga soluvchi badiiy harakatlar, milliy liboslarning yorqinligi va nafosati, noyob musiqiy asarlar ijrosi xalq sahna raqsining e'tirofini kuchaytiradi [4]. Xalq sahna raqsining nufuzi borgan sari ortib borayotganini zamonaviy yoshlar orasida raqs san'atiga qiziqish kuchayishi, yangi raqs to'garaklari va studiyalarning ochilishi, turli xalqaro loyihalarda faol ishtirok etayotgan iste'dodli raqqosalar tashkil topayotganidan ham ko'rish mumkin. Kelajakka intilgan yosh avlod o'zining milliy ildizlariga, o'z urf-odatlariga hurmat bilan yondashib, shu bilan birga zamonaviy san'at yutuqlarini o'zlashtirmoqda va raqs sahnasida o'ziga xos yangi yulduzlar safi kengaymoqda. Bu orqali xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi yanada yuqori bosqichlarga ko'tarilmoqda va jahon san'ati tarixiga yangi sahifalar qo'shilmogda. Xalq sahna raqsining rivojlanishi va xalqaro maydonda nufuzi oshishida mana shunday uzviy bog'liqlik va hamkorlik, tarixiy merosga hurmat, zamonaviy izlanishlar va innovatsiyalarning uyg'unlashuvi muhim rol o'ynaydi. Turli xalqlarning raqqosalari, xorijiy tomoshabinlar e'tiborini tortuvchi raqs ansambllari nafaqat o'z yurti faxri, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylanmoqda. Hozirgi kunda xalqaro sahnada chiqish qilayotgan har bir jamoa, har bir san'atkor o'z millatining badiiy dunyoqarashi, orzu-umidlari va eng ezgu qadriyatlarini ifoda etib, madaniy muloqotni rivojlantirmoqda [5]. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi tobora ortib borayotganini kuzatish mumkin. Dastlab, xalq raqslari asosan o'z hududida, mahalliy darajada namoyish etilgan bo'lsa, hozirgi kunda bu

san'at turi xalqaro festival va madaniy tadbirlarning muhim qismiga aylangan. Har xil mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro san'at festivallarida o'zbek xalq raqslari katta e'tibor va iliqlik bilan kutib olinayotgani bejiz emas. Bu raqslar o'zining turfa rang-barang liboslari, ohangdor musiqasi, harakatlarning nafisligi va ifoda boyligi bilan boshqa xalqlarning diqqatini tortadi. Xalq sahna raqsining xalqaro maydondagi obro'si ko'plab sabablarga borib taqaladi. Birinchidan, u milliy an'ana va madaniyatning qadimiy ildizlarini o'z ichiga olib, zamonaviylik bilan uyg'unlashgan. Bu esa tomoshabinga nafaqat estetik zavq, balki bir xalqning ma'naviy olami, tarixi va urf-odatlarini haqida tasavvur beradi. Ikkinchidan, xalq raqsining yirik san'at ansambllari, yakkaxon raqqosalar chet davlatlarga gastrol safari bilan chiqib, o'zining yuqori darajadagi mahoratini namoyon qilmoqda hamda xalqaro maydonda o'zbek madaniyatini targ'ib qilmoqda. Tahlil natijasida, xalq sahna raqsining nufuzi nafaqat san'at ixlosmandlari, balki keng jamoatchilik orasida ham yuksalib borayotgani seziladi. Ko'plab xorijiy san'atshunoslar va tomoshabinlar o'zbek raqsini o'rganishga, undan ilhomlanib yangi sahna asarlar yaratishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, xalq raqsiga bo'lgan qiziqish xalqaro bosqichda madaniy almashinuvlarni ham kuchaytirib, san'at orqali xalqlar do'stligining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Yana bir muhim natija shuki, yosh avlod orasida ham xalq raqsiga bo'lgan qiziqish oshib borayapti va ular xalqaro ko'rgazmalar, tanlovlarda ishtirok etish orqali o'z ustozlari an'alarini davom ettirmoqdalar. Bu esa xalq raqsining umri uzayib, har bir avlod tomonidan zamonaviy talqinda yashab, rivojlanib borishini ta'minlamoqda [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi yildan yilga ortib bormoqda. Bunda milliylik va zamonaviy uslub uyg'unligi, san'atkorlar va mutaxassislarning jonbozligi, davlat va xalqaro tashkilotlarning e'tibori, yoshlarning izlanishlari va tomoshabinlarning qiziqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq sahna raqsi barcha xalqlarning umumiy ma'naviy boyligini oshiradi, ularni yanada yaqinlashtiradi va dunyodagi barchani san'at va go'zallikka yo'naltiradi. Shu sababdan xalq raqsining xalqlararo madaniy muloqot va dunyo madaniyati rivojidadagi o'rni beqiyosdir. Bu san'at turi doimo yuksalishda davom etaveradi va yangi-yangi avlodlarni o'ziga rom qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova, M. (2017). Bolalarda estetik tarbiyada raqs san'atining ahamiyati. Samarqand: SamDU nashriyoti.
2. Ismoilova, D. (2016). "O'zbek xalq raqslari va ularning hududiy xususiyatlari." San'at va madaniyat jurnali, №3, 45–52.
3. Jo'rayev, H. (2018). O'zbek raqs san'ati tarixi. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Karimova, N. (2020). "Farg'ona vodiysi raqslari: Tanovar va uning estetik talqini." Madaniyatshunoslik tadqiqotlari, №2, 33–41.
5. Rahmonova, S. (2015). O'zbek raqs san'atining ildizlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
6. Rasulova, Z. (2022). "O'zbek raqs san'atining zamonaviy talqinlari." O'zbekiston san'ati va madaniyati, №1, 17–24.
7. UNESCO (2019). "Khorazm Dance 'Lazgi' Inscribed in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity." UNESCO.org. (<https://ich.unesco.org/>)